

YAPON TILIDAGI KEIGO TIZIMI VA O'ZBEK TILIDAGI HURMAT IFODALARNI TAQQOSLANISHI

Komolova Sheroza Akmaljon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston
sherozakomolova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon keigo tizimi, o'zbek hurmat shakllari va ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: keigo, yapon tili, hurmat ifodalari, sonkeigo, kenjougo, teineigo, nutq, leksik vositalar, madaniy farqlar, grammatik o'zgarish.

Har bir xalqning tili – uning dunyoqarashini, jamiyatdagi o'rnini va madaniyatini aks ettiruvchi eng asosiy qadriyatlardan biridir. Hurmat ifodalari yapon tilida alohida tizim sifatida shakllangan va u “keigo” deb nomlanadi. Keigo oddiy “odobli so'zlashuv” emas, balki so'zlarning butunlay o'zgarishidir [3].

Shu bilan bir qatorda, o'zbek tilida ham hurmat ifodalari muhim o'rin tutadi. Shaxsga munosabat esa sizlash, unvon qo'llash va yumushoq ohang orqali ifodalanadi.

Yapon tilidagi keigo tizimining tuzilishi: Yapon tilida keigo (敬語) – ijtimoiy munosabatlarni til vositasida ifodalovchi murakkab hurmat tizimi bo'lib, uning markazida suhbatdoshning maqomi, yoshi, vazifasi va muloqot situatsiyasining rasmiylik darajasi turadi. Keigo tizimi har bir muloqot jarayonida tinglovchiga nisbatan ehtirom ko'rsatish, o'zini pastroq tutish yoki nutqni umumiy muloyimlik bilan bezashni taqozo etadi [1, 3]. Bu tizim uch asosiy grammatik toifadagi nutq shakllaridan tashkil topadi: sonkeigo, kenjougo va teineigo.

Sonkeigoning asosiy vazifasi – suhbatdosh yoki tilga olinayotgan uchinchi shaxsni ulug'lash, unga nisbatan hurmatni oshirilgan grammatik shakllar orqali ifodalashdir. Bu nutq shakli ierarxik mavqei yuqoriroq bo'lgan shaxsga murojaat qilganda, yoshi katta insonlar, mijozlar va rasmiy shaxslarga nisbatan qo'llanadi [2, 4].

Kenjougoning asosiy vazifasi – gapiruvchi o'zini pastga qo'ygan holda suhbatdoshga ehtirom bildirishga xizmat qiladi. Bu holatda gapiruvchi shaxsning harakati maxsus kamtarlik shakllarida ifodalanadi [3, 5].

Teineigoning asosiy vazifasi – keigo tizimining eng asosiy va eng keng qo'llaniladigan shakli bo'lib, gapni muloyim va rasmiy ohangda ifodalash uchun ishlatiladi. Teineigo fe'llarning –masu shakllarida, sifatlarning esa –desu konstruktsiyasi yordamida hosil qilinadi.

O'zbek tili — turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega madaniy va ma'naviy an'analari bilan bir qatorda, o'ziga xos hurmat ifodalash tizimini shakllantirgan. Bu tizim o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, oilaviy tuzilishi, e'tiqodi va odob-axloq qoidalari bilan chambarchas bog'liq. Hurmat ifodalari nafaqat grammatik ko'rinishlarda, balki so'z tanlash, ohang, murojaat shakllari, ibora va maqollarda ham keng o'rin olgan.

Tilshunos A. Hojiev (2007) o'zbek tilida hurmatning eng muhim ko'rinishi leksik birliklar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Lug'atda hurmatni ifodalovchi maxsus so'zlar, iboralar, duo-so'zlar va murojaatlar mavjud bo'lib, ular suhbatni muloyim, ehtiromli va madaniyatga mos qiladi. Misol sifatida esa ushbu gapni olsak, “Muhtaram ustozlar, sizning maslahatlaringiz biz uchun juda qadrlı.”

Bu jumlada *muhtaram* soʻzi oʻquvchini ulugʻlab, murojaatning hurmat darajasini oshiradi. Tilshunos R. Rasulov (2012) oʻz tadqiqotlarida esa oʻzbek tilidagi hurmat kategoriyasining grammatik asosini “*sen-siz*” qarama-qarshiligi tashkil etishini qayd etadi. “Sizlash” nafaqat olmosh orqali, balki feʼlning koʻplik 2-shaxs shakli bilan ham qoʻllanilishini taʼkidlab oʻtgan [2].

Keigo va oʻzbek hurmat shakllarining taqqoslanishi: oʻxshashlik va farqlar

Hurmat ifodalari har bir tilning madaniy va ijtimoiy kontekstiga bogʻliq boʻlib, leksik va grammatik tizimida oʻz aksini topadi. Xususan, yapon tilidagi Keigo va oʻzbek tilidagi hurmat shakllari koʻplab oʻxshashlik va farqlarga ega boʻlib, ularni taqqoslash orqali til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni tushunish mumkin.

Oʻxshashliklar - yapon tilidagi Keigo va oʻzbek tilidagi hurmat shakllari koʻplab jihatlari bilan oʻxshashdir, chunki har ikkala til ham suhbatdoshga nisbatan hurmatni til vositalari orqali ifodalashga asoslangan.

Har ikkala tilda ham suhbatdoshni hurmat qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Masalan, yapon tilida “先生、いらっしゃいますか” deb soʻralsa, oʻzbek tilida bu “Ustoz, siz bu yerga keldingizmi?” tarzida ifodalanadi. Shu misol hurmatni ifodalashdagi umumiy maqsadni koʻrsatadi [1, 3].

Hurmatni oshirishda leksik vositalar ham ishlatiladi. Yapon tilida *sensei* yoki - *sama* qoʻshimchalari, oʻzbek tilida esa *ustoz*, *muhtaram*, *domla*, *janoblari* kabi soʻzlar suhbatdoshga nisbatan hurmat darajasini koʻtaradi [4].

Shuningdek, har ikkala til ham hurmat shakllarini madaniy kontekstga qarab moslashtiradi. Rasmiy suhbatda yoki kattalar bilan muloqotda hurmat shakllari koʻproq ishlatiladi, norasmiy suhbatda esa ularni ishlatish ehtiyoji kamayadi.

Shu oʻxshashliklar koʻrsatadiki, tilga qarab grammatik vositalar va shakllar farq qilsa-da, asosiy maqsad – suhbatdoshga hurmatni ifodalash va madaniy munosabatni saqlashdir.

Farqlar - yapon tilidagi Keigo tizimi va oʻzbek tilidagi hurmat shakllari murakkablik jihatidan farqlanadi. Keigo juda tizimli boʻlib, feʼl va olmoshning bir nechta shakllarini oʻz ichiga oladi. Asosiy shakllari quyidagilar: *sonkeigo*, *kenjougo*, *teineigo* va boshqa ixtiyoriy hurmat shakllari. Shu sababli Keigo notoʻgʻri qoʻllanilganda madaniy xato sifatida qabul qilinadi.

Oʻzbek tilida esa hurmat shakllari grammatik jihatdan sodda: asosan “siz” olmoshi va feʼlning koʻplik shakli yordamida ifodalanadi. Bundan tashqari, hurmatni oshirish uchun leksik vositalar ishlatiladi, masalan, *ustoz*, *muhtaram*, *domla*, *janoblari*. Shu boisdan oʻzbek tilida hurmatni notoʻgʻri ifodalash odatda jiddiy qabul qilinmaydi va koʻproq odobiy xatolik sifatida baholanadi.

Yapon va oʻzbek tilidagi hurmat shakllari oʻzaro ikki tilning madaniyatida insonlar orasidagi munosabatni naqat muhim ekanligini koʻrsatadi [6]. Keigo tizimi grammatik jihatdan qiyin boʻlib, uni ifodalash uchun feʼl va olmoshning turli shakllaridan foydalaniladi. Ayni paytda oʻzbek tilida bu usul sodda yoʻl - koʻplik shakl yoki leksik vositalar orqali amalga oshiriladi [2, 4]. Umuman olganda, Keigo va oʻzbek hurmat shakllari tilning ijtimoiy funksiyasini ifodalashda muhim vosita boʻlib, ularning oʻrganilishi tilni chuqurroq tushunish va samarali muloqot qilish imkonini beradi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar roʻxati:

1. Bunka-chō. (2007). Keigo boʻyicha koʻrsatmalar .Madaniyat ishlari agentligi.
2. Hojiev, A. (2007). Oʻzbek tili stilistiyasi. Toshkent: Fan.

3. Makino, S., & Tsutsui, M. (1986). Asosiy yapon grammatikasi lug'ati. Tokio: Japan Times.
4. Rasulov, R. (2012). "O'zbek nutq madaniyatida hurmat kategoriyasi." Filologiya masalalari jurnali
5. Tofugu. (n.d.). Keigo bo'yicha qo'llanma. Tofugu veb-saytidan olindi
6. Shibatani, M. (1990). The Languages of Japan. Cambridge: Cambridge University Press